Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Shukurov, T. (2019**).** Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: iqtisodiy va texnologik yondashuvlar. Toshkent: Akademnashr.

BANKLARARO ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANISHI

Abduraximova Feruza Alisherovna
Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti
feruza6696@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur tezis banklararo elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi masalasiga bag‘ishlangan. Unda banklararo to‘lov tizimlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning, xususan, blokcheyn, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektning o‘rni o‘rganilgan. Tezisda xalqaro standartlar va tajribalar asosida banklararo to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilishning istiqbollari ham ko‘rib chiqilgan. Integratsiyalashgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan to‘lov tizimlari nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida taqdim etilgan. Tezis tezis banklararo elektron to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilishning zamonaviy yondashuvlari va texnologik imkoniyatlari haqida to‘liq tasavvur beradi va bu boradagi tadqiqotlar uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Bank, elektron to‘lov, to‘lov tizimi, zamonaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya, xavfsizlik, shaffoflik, moliyaviy infratuzilma, to‘lov jarayonlarini avtomatlashtirish, innovatsiya, kiberxavfsizlik, moliyaviy texnologiyalar.

Banklararo to‘lov tizimi har qanday mamlakat moliyaviy tizimining asosiy qismidir. Uning rivojlanishi bank sektorining samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi banklararo to‘lov mexanizmlarining sifatini yaxshilash va tezligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

To‘lov tizimining rivojlanishi, avvalo, uning ishonchliligi va xavfsizligini oshirish bilan bog‘liq. Xavfsizlik masalalari, ayniqsa, kiberhujumlar xavfi yuqori bo‘lgan sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy kriptografik texnologiyalar, shuningdek, blokcheyn texnologiyasining tatbiqi to‘lov tizimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Blokcheyn asosidagi tizimlar, ayniqsa, tranzaksiyalarning shaffofligini oshirish va ularni real vaqt rejimida kuzatishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Zamonaviy texnologiyalar banklararo to‘lov tizimlarining rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, ular banklararo elektron to‘lov tizimlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Quyida eng asosiy texnologiyalar va ularning ta‘siri ko‘rib o‘tamiz (1-jadval):

1-jadval

Banklararo elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy texnologiyalari[148]

Blokcheyn texnologiyasi	Blokcheyn texnologiyasi orqali banklararo tranzaksiyalarni vositachilarsiz va xavfsiz amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu texnologiya to‘lovlarning shaffofligi va tezkorligini ta‘minlaydi.

[148] Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Published: 23.12.2024
Cite this article: Abduraximova Feruza Alisherovna (2024). Banklararo elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1117
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Sun‘iy intellekt	Sun‘iy intellekt yordamida banklararo tranzaksiyalarni avtomatlashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va firibgarliklarni aniqlash jarayonlari samarali amalga oshirilmoqda.
Tezkor to‘lov tizimlari	Real vaqt rejimida hisob-kitob qilish tizimlari to‘lovlarning bir zumda amalga oshirilishini ta‘minlaydi. Bu moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishda muhim vositadir.
Raqamli valyutalar	Markaziy banklar tomonidan chiqarilayotgan raqamli valyutalar banklararo hisob-kitoblarni optimallashtirishga yordam bermoqda. Raqamli valyutalar tranzaksiyalar tezligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.
Bulutli texnologiyalar	Banklararo to‘lov tizimlarida bulutli texnologiyalarni qo‘llash orqali tizimlarning moslashuvchanligi va ma‘lumotlarni qayta ishlash tezligi oshirilmoqda.

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ushbu texnologiyalar to‘lov jarayonlarini tezkor va ishonchli amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Xususan, xavfsizlik darajasining oshishi va operatsiyalarni optimallashtirish orqali moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Blokcheyn texnologiyasi, masalan, to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlarni shaffof tarzda saqlash va ularni xavfsiz boshqarishni ta’minlaydi. Bulutli texnologiyalar esa banklarga katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali boshqarishga va ulardan real vaqt rejimida foydalanishga yordam beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar to‘lovlar jarayonini avtomatlashtirishga va firibgarlik xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. IoT qurilmalari esa turli to‘lov xizmatlarini birlashtirish va ulardan foydalanishni qulaylashtirish imkoniyatini bermoqda. Zamonaviy texnologiyalarning tatbiqi nafaqat ichki bank operatsiyalarini tezlashtiradi, balki transchegaraviy to‘lovlarni ham soddalashtirib, ular bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi.

Bularning barchasi banklararo elektron to‘lov tizimlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi va global moliyaviy tizimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, zamonaviy texnologiyalar nafaqat banklar uchun, balki mijozlar uchun ham qulayliklar yaratib, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni ancha osonlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, banklararo elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanishi moliyaviy sektorning barqarorligi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Blokcheyn, sun'iy intellekt va dasturiy ta'minot interfeyslari kabi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bank elektron to‘lov tizimlarining paydo bo‘lishi va jadal rivojlanishi banklararo elektron to‘lov tizimlarining manzarasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu innovatsiyalar moliyaviy operatsiyalarning ishonchliligi, tezligi va shaffofligini oshirishga, shuningdek, aholining keng qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirishga imkon beradi. Bunday tizimlarni rivojlantirishga sarmoya kiritish bank sektorining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash va umuman iqtisodiyotni raqamli o‘zgartirishga ko‘maklashish uchun strategik muhim qadamdir. Shu sababli, mazkur tizimlarni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar kelajakda bank tizimining raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi va moliyaviy xizmatlarning ommaviylashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

7. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sonli Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
11. J.X.Ataniyazov, N.X.Jumayev, E.D.Alimardonov. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari (1-qism). Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. - 168 b.
12. Tojiev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik.- Toshkent. “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019 yil, 296 b.
13. Bobaqulov T.I., Abdullayev U.A. “Xalqaro valuta-kredit munosabatlari” Darslik. - Moliya.- Toshkent, 2019yil, 226 b.
14. Гордиевич Т. И., Рузанов П. В. Денежно-кредитная политика: основные режимы и трансмиссионный механизм // Омский научный вестник. Сер. Общество. История. Современность. 2019. Т. 4, № 2. С. 122–130.
Кудрин А., Горюнов Е., Трунин П. Стимулирующая денежно-кредитная полити ка: мифы и реальность // Вопросы экономики. 2017. №5. С. 5–28.

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Karimov Shahbozxo‘ja Xamdamjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi
karimovshahboz417@gmail.com

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotimizda xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli tovarlar bilan to‘ldirish, zamon talablarini inobatga olgan holda xizmatlar ko‘rsatish sohasini kengaytirish, eksport tarkibida jahon bozorlarida xaridorgir, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko‘paytirish, avvalo yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadi hamda farovonligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Yuqoridagilar asosida, mazkur ishda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda hududlarda tadbirkorlik faoliyatining rolini oshirish hamda ushbu masalaga oid ustuvor yo‘nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, iqtisodiyot, ichki bozor, xizmat ko‘rsatish, eksport, import, yangi ish o‘rinlari, aholi daromadlari, ishlab chiqarish, barqaror rivojlanish.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub’yektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan, yuqori likvidli mahsulotlar, xom ashyo va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etish, yangi tuzilayotgan tadbirkorlik sub’yektlarini ro‘yxatga olishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashga doir qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar ochib berdi. Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xo‘jalik yurituvshi sub’yektlar